



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5 (3)



ISSN: 2992-8982 <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, may.
3-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilkomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHGA QARATILGAN HAYOTIY TASHABBUSLAR.....	12
Muxiddin Kalonov	
O'ZBEKISTONDA NAQDSIZ TO'LOVLAR ULUSHINING OSHISHI VA PUL MASSASI NAZORATI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.....	28
Pardayev G'ayrat Jabbor o'g'li	
BUXGALTERIYA HISOBINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI HISOB SIYOSATINING SHAKLLANISHIDA ASOS SIFATIDA.....	34
Abduvaxidov Farxod Tuychiyevich	
O'ZBEKISTON AUDITORLIK TASHKILOTLARIDA ICHKI SIFAT NAZORATI STANDARTLARINI RISKKA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	41
Bobonarova Kamola	
SANOAT KORXONALARINING INVESTITSION-INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	47
Azizova Habiba Arslonovna	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA RAQAMLI DAVLAT XIZMATLARINI KO'RSATISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI.....	56
Yusupova Dilbar Mirabidovna	
KARBOHOVYIE KREDITI V AGRAPNOM SEKTOPE KAK INSTRUMENT RAZVITIYA ZEL'ENNOY EKONOMIKI UZBEKISTANA.....	61
Abdullaeva Zaynab Ruslanovna	
BUXORO ZINDONI VA BOLO HOVUZ ANSAMBLI MISOLIDA TARIXIY OBIDALARNING BARQAROR TURISTIK SIG'IMI TAHLILI.....	66
Shodiyeva Moxichehra Shokir qizi, Qilichov Muhridin Husniddin o'g'li	
SOLIQ TIZIMIDA SOLIQ RISKINI BAHOLASH USLUBIYOTI.....	73
Ravshanjon Azimovich	
O'ZBEKISTONDA UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA BUXORO VILOYATI TAHLILI.....	80
Davidxodjayev Oybek Obidovich	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION KREDITLASHLASHNING AMALDAGI HOLATI VA ISTIQBOLLARI.....	85
Abdurashidova Mohidil Qodir qizi, Karimova A.	
IQTISODIYOTNI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA DXSH ASOSIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNI BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	91
Toxirov Jaxongir Maxmudjon o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATIDA UY-JOY QURILISHI VA IPOTEKA KREDITLASHNING O'ZARO BOG'LIQLIGI.....	96
Turopova Nigora Xolmurod qizi, Safarova Dilrabo Baxriddin qizi	
ESG INTEGRATION AND GREEN FINANCIAL ANALYSIS: A NEW METHODOLOGICAL APPROACH TO CORPORATE FINANCIAL SUSTAINABILITY.....	100
Erkin Temirovich Shodiev	
THE CURRENT STATE OF DIGITALIZATION OF TOURISM IN UZBEKISTAN AND PROSPECTS FOR ITS DEVELOPMENT.....	105
Bekmurodov Bakhtiyor Farkhodovich	
TA'LIM MUASSASALARINI MOLIVALASHTIRISHDA OPTIMALLASHTIRISH ZARURATI VA YO'NALISHLARI.....	113
Umarov Avzaljon Yodgorali o'g'li	



АХОЛИ ИСТЕ’МОЛ МАДАНИЯТИ ВА МИЛЛИЙ ИQTISODIY O’SISHGA TA’SIRI	118
Rustamov Sheroz Oblokulovich	
ISHLAB CHIQRISH OMILLARINING IQTISODIY O’SISHGA TA’SIRI: KOBБ–DOUGLAS MODELИ ASOSIDA EKONOMETRIK TAHLIL	123
Maxmudov Sobir Xudoyberdiyevich	
BARQAROR SHAHARSOZLIK RIVOJLANISHIGA ERISHISHDA QATTIQ CHIQINDILARNI KOMPLEKS BOSHQARISH	129
Firas Halawani, Feruza Insavaliyeva	
СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ РЕАЛИЗАЦИИ НА НАЦИОНАЛЬНОМ УРОВНЕ КЛЮЧЕВЫХ МЕЖДУНАРОДНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ СОГЛАШЕНИЙ, СВЯЗАННЫХ С ТРАНСГРАНИЧНЫМ ЗАГРЯЗНЕНИЕМ, В УЗБЕКИСТАНЕ И СОСЕДНИХ СТРАНАХ.....	139
Шафикова Луиза, Ойбек Камилов	
ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА УЗБЕКИСТАНА: ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО УРОВНЯ И ПОТЕНЦИАЛА РОСТА	150
Омонтурдиева Диёра	
YER VA SUV RESURSLARINI INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQARISHDA DRONLARDAN FOYDALANISH.....	155
Matkarimov Mansur	
YASHIL INVESTITSIYALAR BOZORI MEХANIZMINING DASTAKLARI	161
Ziyodullayeva Gulasal Akmal qizi	
СТРАТЕГИЯ ПРИВЛЕЧЕНИЯ И УДЕРЖАНИЯ ПЕРСОНАЛА ПОСРЕДСТВОМ HR-БРЕНДИНГА: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ПРАКТИКА РЕАЛИЗАЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	167
Дониерова Фотимабону Алишер кизи	
KAMBAG’ALLIKNI MONETAR VA KO’P O’LCHOVLI BAHOLASH METODOLOGIYASI ASOSIDA IQTISODIY O’SISH STRATEGIYALARINI KONSEPTUAL TAKOMILLASHTIRISH	173
Sotiboldiyev Asadbek Hasan o’g’li	
QURILISH SANOATIDA RESURS TEJAMKOR ISHLAB CHIQRISH TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO’NALISHLARI.....	179
Utbasarov Doniyorjon Baxtiyorovich	
KICHIK BIZNESDA XIZMATLAR SOHASINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI.....	188
Raximov Zafar Komilovich, Mamatazimov Jaloliddin Sherzod o’g’li	
MANAGING DIGITAL TRANSFORMATION IN PRIMARY HEALTHCARE: A SYSTEMATIC LITERATURE REVIEW	192
Ashurova Sitora Xusnitdin qizi	
МЕЖДУНАРОДНЫЕ ПРАВОВЫЕ ПРОБЕЛЫ В УПРАВЛЕНИИ ТРАНСГРАНИЧНЫМ ЗАГРЯЗНЕНИЕМ ВОД В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ	197
Тиллахуджаев Аббосхон, Дилфуза Шакирова, Мухамедалиева Сайёра, Ойбек Камилов	
JAHON ME’MORIY MEROSIDAN TURIZMDA FOYDALANISH: DOLZARB MUAMMOLAR, ZAMONAVIY YECHIMLAR VA ISTIQBOLLI TAKLIFLAR.....	208
Qilichov Muhriddin Husniddin o’g’li	
IMPROVING SALES PROMOTION STRATEGIES FOR UZBEK EXPORTERS IN DEVELOPING FOREIGN MARKETS.....	217
Aziz Kurbanovich Abdullaev, Rustamova Madina Baxrom qizi	
ENVIRONMENTAL DEGRADATION AND CARBON EMISSION: INTERCONNECTED LINKS WITH ECONOMIC GROWTH IN POST-SOVIET.....	222
Rajabova Malika Nuriddin qizi	
NATIЈAGA YO’NALTIRILGAN BUDJETLASHTIRISHGA OID ILMIY QARASHLAR VA YONDASHUVLAR	230
Qosimova Gulyar Axmatovna	



ТРАНСГРАНИЧНЫЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ РЕГИОНАЛЬНОГО ТУРИЗМА НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН.....	236
Наурызбаев Алиакбар Рустамович	
ВЗАИМОСВЯЗЬ УРОВНЯ ЖИЗНИ И ИНДЕКСА ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ В УСЛОВИЯХ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ	239
Усманова Зумрад Исламовна	
KIMYO SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORALARI	242
Muxammadiyeva Munira Zaynabuddinovna	
QISHLOQ UY-JOY QURILISHIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEKANIZMLARINING AHAMIYATI	248
Xannarov Komiljon Karimovich	



QISHLOQ UY-JOY QURILISHIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMLARINING AHAMIYATI

Xannarov Komiljon Karimovich

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi xodimi, PhD

ORCID: 0009-0001-0447-7397

xannarov.k@gov.uz

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada O'zbekiston Respublikasida qishloq joylarda uy-joy qurilishini rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining roli va ahamiyati tahlil qilinadi. Islom taraqqiyot banki va Osiyo taraqqiyot banki ishtirokidagi yirik loyihalar misolida DXSHning moliyaviy samaradorligi, risklarni taqsimlash va infratuzilmani rivojlantirishdagi ustunliklari ochib beriladi. Maqolada, shuningdek, kichik biznes subyektlarini jalb qilish, yer resurslaridan samarali foydalanish va qurilish sifatini oshirishda DXSHning ahamiyati statistik ma'lumotlar asosida asoslanadi.

Kalit so'zlar: davlat-xususiy sheriklik, qishloq uy-joy qurilishi, ipoteka kreditlash, infratuzilma, investitsiyalar.

Abstract. This scientific article analyzes the role and significance of public-private partnership mechanisms in the development of rural housing construction in the Republic of Uzbekistan. Using the examples of large-scale projects implemented with the participation of the Islamic Development Bank and the Asian Development Bank, the study reveals the financial efficiency of public-private partnerships, risk distribution, and their advantages in infrastructure development. The article also substantiates, based on statistical data, the importance of public-private partnerships in attracting small business entities, ensuring the efficient use of land resources, and improving construction quality.

Key words: public-private partnership, rural housing construction, mortgage lending, infrastructure, investment.

Аннотация. В данной научной статье анализируются роль и значение механизмов государственно-частного партнёрства в развитии жилищного строительства в сельской местности Республики Узбекистан. На примере крупных проектов с участием Исламского банка развития и Азиатского банка развития раскрываются финансовая эффективность механизмов государственно-частного партнёрства, особенности распределения рисков и преимущества в развитии инфраструктуры. В статье также на основе статистических данных обосновывается значение государственно-частного партнёрства в привлечении субъектов малого бизнеса, эффективном использовании земельных ресурсов и повышении качества строительства.

Ключевые слова: государственно-частное партнёрство, сельское жилищное строительство, ипотечное кредитование, инфраструктура, инвестиции.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida aholini uy-joy bilan ta'minlash masalasi ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, mamlakat aholisining qariyb 63 foizi qishloq hududlarida istiqomat qilishi qishloq joylarda zamonaviy va qulay yashash sharoitlarini yaratish zaruratini yanada kuchaytiradi. Qishloq aholisining turmush darajasini oshirish, hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish hamda qishloq infratuzilmasini rivojlantirish davlat uy-joy siyosatining strategik maqsadlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli so'nggi yillarda qishloq joylarda uy-joy qurilishi va infratuzilmani modernizatsiya qilishga qaratilgan keng ko'lamli dasturlar amalga oshirilmogda.

Xususan, 2009-yildan boshlab "Qishloq joylarda namunaviy loyihalar bo'yicha arzon uy-joylar qurish dasturi" doirasida tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Mazkur dastur qishloq hududlarida zamonaviy arxitektura



talablari asosida namunaviy uy-joy massivlarini barpo etish, aholining yashash sharoitlarini yaxshilash va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirishga xizmat qildi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2009–2017-yillar davomida jami 81 992 ta uy-joy qurilib, 6 624 ta zamonaviy uy-joy massivlari tashkil etilgan. Bu esa qishloq hududlarining me'moriy qiyofasini o'zgartirish bilan bir qatorda, qurilish sanoati, transport, xizmat ko'rsatish va infratuzilma tarmoqlarining rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Shu bilan birga, qishloq uy-joy qurilishining keng ko'lamda amalga oshirilishi yuqori moliyaviy resurslarni talab etmoqda. Ayniqsa, gaz, elektr energiyasi, ichimlik suvi, avtomobil yo'llari va boshqa muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini qurish bilan bog'liq xarajatlarning yuqoriligi davlat budjeti zimmasiga sezilarli moliyaviy yuk yuklamoqda. Mavjud budjet resurslarining cheklanganligi esa uy-joy qurilishini moliyalashtirishning muqobil va samarali mexanizmlarini joriy etishni taqozo etadi.

Mazkur sharoitda davlat-xususiy sheriklik (DXSH) mexanizmlari qishloq joylarda uy-joy qurilishini moliyalashtirish va boshqarishning istiqbolli institutsional modeli sifatida namoyon bo'lmoqda. DXSH mexanizmlari davlat va xususiy sektor o'rtasida moliyaviy risklarni taqsimlash, investitsion resurslarni diversifikatsiya qilish hamda qurilish loyihalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, xususiy investorlarning jalb qilinishi zamonaviy qurilish texnologiyalarini qo'llash, loyiha boshqaruvi sifatini oshirish va uy-joy qurilishi muddatlarini qisqartirishga xizmat qiladi. Iqtisodiy nuqtai nazardan, DXSH modeli davlat mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish bilan birga, uzoq muddatli barqaror investitsion muhitni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

M. Usmanov uy-joy qurilishida kichik biznesning tutgan roli va uning o'ziga xos xususiyatlarini tizimlashtirishga harakat qiladi. Aholini uy-joy bilan ta'minlashda kam ta'minlangan qatlamning ehtiyojlaridan kelib chiqib, davlat-xususiy sheriklik asosida turar joylar qurilishini rivojlantirishni nazarda tutadi. Bu borada davlatning roli muhim ahamiyatga ega ekanligini alohida ta'kidlab o'tadi [1].

B. Baxtiyorov o'zining ilmiy tadqiqotida aholini ijtimoiy himoya qilishning iqtisodiy mexanizmlari tahliliga qaratilgan ilmiy xulosalarini asoslashga e'tibor qaratadi. Uning fikricha, aholini ijtimoiy himoya qilishda ijtimoiy sug'urta, mehnatga layoqatsizlikda himoyalash, ijtimoiy huquqlarni himoyalash va kafolatlash, ijtimoiy yordam va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash kabilar muhim ahamiyatga ega. Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi iqtisodiy kategoriya sifatida aholining muhtoj qatlamini ta'lim, tibbiy va ijtimoiy sug'urta bilan ta'minlashni nazarda tutadi. Shuningdek, uy-joy bilan ta'minlanganlikning 30 kun davomidagi chastotasi asosida kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalashni ilgari suradi [2].

D. Bahramova dissertatsion tadqiqotida aholini ijtimoiy himoya qilishning ustuvorliklari borasidagi ilmiy yondashuvlarini asoslashga e'tibor beradi. Uning fikricha, aholini ijtimoiy himoyalashga ta'sir etuvchi omillar ikki guruh — ijtimoiy himoyalash inson hayoti faoliyatiga bog'liq ekanligi, ijtimoiy himoyalanganlik esa inson turmush darajasini belgilab beruvchi omil ekanligi shaklida ko'rsatib beriladi. Hayot faoliyati omillari qatorida uy-joy bilan ta'minlanganlik omilini ajratib ko'rsatib beradi. Shu bilan birga, turmush farovonligiga erishish uchun namunaviy loyihalar asosida imtiyozli va arzon uy-joylarni qurish muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab o'tadi [3].

G. Aliyeva o'zining ilmiy tadqiqotida ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari tahlil etadi [4]. Uning fikricha, mintaqaviy ijtimoiy infratuzilma rivojlanishini belgilab beruvchi omillar qatorida uy-joy sohasi muammolarini hal qilishni keltirib o'tadi. Unga ko'ra:

- o'rtacha bir kishiga to'g'ri keladigan turar joy binolari umumiy maydoni;
- kapital ta'mirlashga muhtoj bo'lgan turar joy ulushi;
- mintaqada istiqomat qiladigan fuqarolar uchun turar joy uylarini qurib topshirish;
- mintaqada 1 kv. metr turar joy uchun bozor narxi kabilarni ajratib ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, statistik guruhlash, ekspert baholash, ilmiy abstraksiyalash va boshqa usullardan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat-xususiy sheriklik (DXSH) iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va yirik ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishning samarali institutsional mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Mazkur tizim davlat va xususiy sektor o'rtasida uzoq muddatli hamkorlik munosabatlarini shakllantirishga asoslanib, unda moliyaviy resurslar, boshqaruv tajribasi, texnologiyalar hamda investitsion risklar o'zaro manfaatdorlik tamoyili asosida taqsimlanadi. Iqtisodiy nazariya nuqtai nazaridan, DXSH modeli davlatning ijtimoiy vazifalarini bajarish imkoniyatlarini



kengaytirish bilan bir qatorda xususiy sektorning investitsion va innovatsion salohiyatidan samarali foydalanish imkonini beradi.

Davlat-xususiy sheriklikning asosiy maqsadi ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirishda davlat budjeti yukini kamaytirish, infratuzilma obyektlarini barpo etish samaradorligini oshirish hamda aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilashdan iboratdir. Mazkur modelda davlat, odatda, normativ-huquqiy baza yaratish, yer ajratish, kafolat va imtiyozlar berish kabi vazifalarni bajaradi, xususiy sektor esa investitsiya kiritish, loyiha boshqaruvi, qurilish va ekspluatatsiya jarayonlarida faol ishtirok etadi. Shu tariqa, risklar, mas'uliyat va iqtisodiy foyda tomonlar o'rtasida oqilona taqsimlanadi.

O'zbekiston Respublikasida ham DXSH mexanizmlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. So'nggi yillarda mamlakatda DXSHga oid normativ-huquqiy baza takomillashtirilib, turli tarmoqlarda ushbu mexanizmni keng joriy etish bo'yicha institutsional islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, uy-joy qurilishi, muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish, energetika, transport va chiqindilarni boshqarish kabi strategik sohalarda DXSH asosidagi loyihalar soni ortib bormoqda.

Ayniqsa, qishloq joylarda uy-joy qurilishi sohasida DXSH mexanizmlarining qo'llanilishi muhim iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Chunki qishloq hududlarida zamonaviy uy-joylar va infratuzilma obyektlarini qurish katta hajmdagi investitsion resurslarni talab qiladi. Davlat budjeti imkoniyatlarining cheklanganligi sharoitida xususiy investitsiyalarni jalb etish uy-joy qurilishi jarayonining moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, xususiy sektor ishtiroki zamonaviy qurilish texnologiyalarini joriy etish, loyiha boshqaruvi samaradorligini oshirish hamda qurilish muddatlarini qisqartirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, DXSH mexanizmlarining qurilish chiqindilarini boshqarish va ekologik barqaror infratuzilmani rivojlantirishda qo'llanilishi "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini amaliyotga joriy etishga xizmat qilmoqda. Natijada nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki ekologik va ijtimoiy barqarorlik ham ta'minlanmoqda. Shu nuqtai nazardan, DXSH mexanizmlari O'zbekistonda uy-joy siyosatini modernizatsiya qilish va hududlarni kompleks rivojlantirishning istiqbolli vositalaridan biri sifatida baholanadi.

Qishloq joylarda uy-joy qurilishida davlat-xususiy sheriklik (DXSH) mexanizmlarining samarali faoliyat yuritishi muayyan iqtisodiy va institutsional tamoyillarga asoslanadi. Mazkur tamoyillar davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikning barqarorligi, investitsion jozibadorligi hamda loyiha samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchi muhim tamoyil — risklarni oqilona taqsimlash tamoyilidir. DXSH modelida loyiha bilan bog'liq xavf va tavakkalchiliklar davlat hamda xususiy sherik o'rtasida ularning iqtisodiy imkoniyatlari va funksional vazifalaridan kelib chiqqan holda taqsimlanadi. Odatda, davlat huquqiy, institutsional va siyosiy risklarni o'z zimmasiga oladi. Bunga yer ajratish, normativ-huquqiy bazani shakllantirish, kafolatlar berish hamda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash bilan bog'liq majburiyatlar kiradi. Xususiy sektor esa, asosan, moliyaviy, texnologik va operatsion risklarni boshqaradi. Jumladan, investitsiyalarni jalb qilish, qurilish jarayonini tashkil etish, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish va loyiha samaradorligini ta'minlash xususiy sherik zimmasiga yuklatiladi. Risklarning bunday taqsimlanishi loyiha barqarorligini oshirish bilan birga, moliyaviy resurslardan samarali foydalanishga xizmat qiladi.

Ikkinchi tamoyil — uzoq muddatlilik tamoyili hisoblanadi. Davlat-xususiy sheriklik munosabatlari, odatda, 15–30 yil muddatga mo'ljallanadi va bu loyihalarning uzoq muddatli iqtisodiy samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Uzoq muddatli hamkorlik xususiy investorlar uchun investitsiyalarni qaytarish va barqaror daromad olish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, davlat uchun infratuzilma va uy-joy obyektlarining uzluksiz faoliyat yuritishini kafolatlaydi. Iqtisodiy nuqtai nazardan, uzoq muddatli DXSH loyihalari investitsion barqarorlikni kuchaytiradi hamda strategik rejalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ayniqsa, qishloq hududlarida uy-joy va infratuzilma obyektlarining uzoq muddatli ekspluatatsiyasi yuqori kapital qo'yilmalarni talab qilishi sababli ushbu tamoyil alohida ahamiyatga ega.

Uchinchi muhim tamoyil — natijaga yo'naltirilganlik tamoyilidir. DXSH loyihalarida samaradorlik aniq iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlar asosida baholanadi. Bunda qurilgan uy-joylar soni, infratuzilma obyektlarining sifati, investitsiya samaradorligi, energiya tejamlorligi hamda aholining turmush darajasiga ta'siri kabi mezonlar asosiy indikatorlar sifatida qo'llaniladi. Natijadorlikka asoslangan boshqaruv tizimi loyiha ishtirokchilarining mas'uliyatini oshiradi, mablag'lardan foydalanish samaradorligini kuchaytiradi hamda noqonuniy holatlar yuzaga kelish ehtimolini kamaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, monitoring va audit tizimlarining joriy etilishi DXSH loyihalarning shaffofligini ta'minlab, ularning iqtisodiy samaradorligini muntazam nazorat qilish imkonini beradi.

Umuman olganda, qishloq uy-joy qurilishida DXSH mexanizmlarining ushbu tamoyillar asosida tashkil etilishi davlat va xususiy sektor manfaatlarini uyg'unligini ta'minlash, investitsion muhitni yaxshilash hamda uy-joy siyosati samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.



1-jadval. Qishloq uy-joy qurilishi bo'yicha yirik DXSH loyihalari

Ko'rsatkich	Islom taraqqiyot banki (I bosqich)	Islom taraqqiyot banki (II bosqich)	Osiyo taraqqiyot banki
Amalga oshirilgan yillar	2015-2017	2017-2022	2011-2022
Qurilgan uy-joylar soni	1 415	14 779	29 000+
Moliyalashtirish hajmi	\$100 mln	\$300 mln	\$500 mln
Qamrab olingan hududlar	3 ta viloyat	6 ta viloyat	9 ta viloyat
Moliyalashtirish ulushi	93%	93%	—

1-jadvalga ko'ra, Islom taraqqiyot bankining birinchi bosqich loyihasi 2015–2017-yillar davomida amalga oshirilgan bo'lib, loyiha doirasida 1 415 ta uy-joy qurilgan va buning uchun 100 million AQSH dollari miqdorida mablag' yo'naltirilgan. Mazkur loyiha uchta viloyatni qamrab olgan bo'lib, moliyalashtirish ulushining 93 foizni tashkil etgani xalqaro kredit resurslarining yuqori darajada jalb etilganini ko'rsatadi. Bu esa davlat budjeti yukini kamaytirish bilan birga, qishloq joylarda uy-joy qurilishi dasturlarini tezlashtirish imkonini bergan.

Islom taraqqiyot bankining ikkinchi bosqich loyihasi esa ko'lam jihatidan sezilarli darajada kengayganini ko'rish mumkin. 2017–2022-yillar davomida amalga oshirilgan ushbu loyiha doirasida 14 779 ta uy-joy qurilgan bo'lib, moliyalashtirish hajmi 300 million AQSH dollariga yetgan. Loyiha qamrovi olti viloyatga kengaygani va moliyalashtirish ulushining yana 93 foiz darajasida saqlanib qolganligi xalqaro moliyaviy institutlarning qishloq uy-joy siyosatidagi faol ishtirokini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, loyiha hajmining uch barobarga oshishi uy-joy qurilishiga bo'lgan ehtiyojning yuqoriligini hamda xalqaro hamkorlikning samarali natijalar berayotganini anglatadi.

Jadvaldagi eng yirik ko'rsatkichlar Osiyo taraqqiyot banki loyihalariga to'g'ri keladi. 2011–2022-yillar davomida amalga oshirilgan dasturlar doirasida 29 mingdan ortiq uy-joy qurilib, jami 500 million AQSH dollari miqdorida moliyaviy resurslar jalb qilingan. Loyiha respublikaning to'qqizta viloyatini qamrab olgani hududiy qamrov kengligi va institutsional hamkorlik darajasining yuqoriligini ko'rsatadi. Mazkur loyiha qishloq joylarda uy-joy ta'minotini yaxshilash bilan bir qatorda, infratuzilmani modernizatsiya qilish, yangi ish o'rinlarini yaratish va qurilish sanoatini rivojlantirishga ham sezilarli iqtisodiy ta'sir ko'rsatgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qishloq joylarda uy-joy qurilishini rivojlantirish mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda muhim strategik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. O'zbekiston sharoitida qishloq aholisining salmoqli qismi ushbu hududlarda istiqomat qilishi uy-joy ta'minoti, muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi va yashash sharoitlarini yaxshilash masalasini davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biriga aylantirmoqda. So'nggi yillarda amalga oshirilgan davlat dasturlari natijasida qishloq hududlarida minglab zamonaviy uy-joylar barpo etildi, infratuzilma obyektlari rivojlantirildi hamda aholining turmush sifati sezilarli darajada yaxshilandi.

Biroq qishloq uy-joy qurilishining keng ko'lamda amalga oshirilishi katta hajmdagi moliyaviy resurslarni talab etmoqda. Ayniqsa, infratuzilma xarajatlarining yuqoriligi, davlat budjeti imkoniyatlarining cheklanganligi hamda uzoq muddatli investitsion resurslarga bo'lgan ehtiyoj yangi moliyaviy mexanizmlarni joriy etishni taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan, davlat-xususiy sheriklik (DXSH) mexanizmlari qishloq uy-joy qurilishini moliyalashtirish va boshqarishning samarali institutsional modeli sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, DXSH mexanizmlari davlat va xususiy sektor o'rtasida moliyaviy risklar, mas'uliyat hamda investitsion yuklamani oqilona taqsimlash imkonini beradi. Xususiy sektor investitsiyalarining jalb qilinishi davlat budjeti yukini kamaytirish bilan bir qatorda zamonaviy qurilish texnologiyalarini joriy etish, loyiha boshqaruvi samaradorligini oshirish va uy-joy qurilishi muddatlarini qisqartirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, xalqaro moliya institutlari ishtirokidagi DXSH loyihalari qishloq hududlarida uy-joy va infratuzilma obyektlarini rivojlantirish uchun qo'shimcha moliyaviy manbalarni shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Iqtisodiy jihatdan DXSH mexanizmlarining qo'llanilishi "multiplikativ ta'sir"ni yuzaga keltiradi. Ya'ni davlat tomonidan yaratilgan institutsional va huquqiy sharoitlar xususiy investitsiyalarni rag'batlantirib, qurilish sanoati, transport, xizmat ko'rsatish va mahalliy ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada yangi ish o'rinlari yaratiladi, hududlarning investitsion jozibadorligi oshadi va qishloq aholisi farovonligi yuksaladi.

Shu bilan birga, DXSH mexanizmlarini yanada samarali qo'llash uchun normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, loyiha boshqaruvi va monitoring tizimlarini kuchaytirish, shaffoflikni ta'minlash hamda uzoq muddatli moliyaviy resurslar bozorini rivojlantirish zarur hisoblanadi. Bundan tashqari, ekologik barqaror



va energiya samarador qurilish texnologiyalarini keng joriy etish qishloq uy-joy siyosatining uzoq muddatli samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari qishloq joylarda uy-joy qurilishi tizimini modernizatsiya qilish, investitsion faollikni oshirish va aholining uy-joyga bo'lgan ehtiyojini qondirishning istiqbolli iqtisodiy vositasi sifatida baholanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Usmanov M.A. Uy-joy qurilishi tarmog'ida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatini takomillashtirish: i.f.b.f.d. ... avtoreferat. – T.: TDIU, 2022. – 61 b.
2. Baxtiyorov B.B. Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari: i.f.b.f.d. ... avtoreferat. – T.: M. Ulug'bek nomidagi O'zMU, 2020. – 55 b.
3. Bahramova D.B. Aholini ijtimoiy himoyalashning asosiy yo'nalishlarini iqtisodiy-statistik tahlili: Qashqadaryo viloyati misolida: i.f.b.f.d. ... avtoreferat. – T.: TDIU, 2018. – 56 b.
4. Aliyeva G.A. Ijtimoiy infratuzilmalar rivojlanishini boshqarishni takomillashtirish: Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida: i.f.b.f.d. ... avtoreferat. – Nukus: Qoraqalpoq davlat universiteti, 2020. – 56 b.
5. O'zbekiston Respublikasining "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi O'RBQ-537-son qonuni, 10.05.2019. <https://lex.uz/docs/-4329270>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Islom taraqqiyot banki ishtirokida 2017–2021-yillarda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalar bo'yicha arzon uy-joylar qurish dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2859-son qarori, 30.03.2017. <https://lex.uz/uz/docs/-4911815>
7. Islamic Development Bank. Building futures: Modern homes for rural Uzbekistan. IsDB, 2024. <https://50-years.isdb.org/story/building-futures/>
8. Asian Development Bank. Affordable Rural Housing Program: Report and Recommendation of the President. ADB, 2017. <https://www.adb.org/projects/documents/uzb-50022-002-rrp>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5 (3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>